XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-89-11-167-K/25 Quvasoy shahar

Quvasoy shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/9997-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Quvasoy shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari **116,973 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **116,973 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Quvasoy shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **0,770 mlrd.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq;

shahar budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1,386 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **3-ilovaga**;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **4-ilovaga**;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari **5-ilovaga;**

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 m^2 uchun eng kam stavkalari **6-ilovaga;**

suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalari **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Kadirov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Umarov), shahar soliq inspeksiyasi (B.Toshaliyev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Qasimov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Kadirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **TO‘RAKULOV ZAFARJON KODIROVICH**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Quvasoy shahar mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘m

№	Daromad turlari	Quvasoy shahar
	JAMI	**116 972 700**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 829 000
2	Foyda solig‘i	2 179 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6 646 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	44 894 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	2 194 000
	Aksiz solig‘i jami	4 779 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	4 779 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 611 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	8 675 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 517 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 539 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	401 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 882 800
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	3 948 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1 579 200
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	1 223 100
15	Yig‘imlar	154 800
16	Jarimalar	1 390 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	58 000

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Quvasoy shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Quvasoy shahar
	Xarajatlar miqdori, jami	**116 972 700**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	29 175 782
	shundan:	x
	“Mening maktabim”	*1 792 200*
2	Madaniyat bo‘limi	7 020 363
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 058 882
4	Sport bo‘limi	9 275 565
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 391 262
6	Qishloq xo‘jaligi sohasi	1 799 453
7	Irrigatsiya bo‘limi	2 334 904
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 571 950
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	135 395
10	Hokimiyat	29 602 229
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
	Madaniyat bo‘limi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*15 945 644*
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*1 480 129*
	Zahira jamg‘armasi	*1 386 175*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	984 000
	shundan:	x
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*984 000*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	28 622 915
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	MFYlar nomi	2026 yil	
			Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi ming.so‘m)
1	Quvasoy shahar	Bunyodkor	1,05	50 243,0
2	Quvasoy shahar	Polmon	1,10	52 635,0
3	Quvasoy shahar	Soy bo‘yi	1,10	52 635,0
4	Quvasoy shahar	Sufon	0,75	35 888,0
5	Quvasoy shahar	Cho‘lpon	1,10	52 635,0
6	Quvasoy shahar	Xamid Olimjon	1,10	52 635,0
7	Quvasoy shahar	Xuvaydo	1,10	52 635,0
8	Quvasoy shahar	Yuqori Mo‘yan	1,05	50 243,0
9	Quvasoy shahar	Yangi obod	0,75	35 888,0
10	Quvasoy shahar	Pastki Valik	0,75	35 888,0
11	Quvasoy shahar	Amir Temur	1,10	52 635,0
12	Quvasoy shahar	Hamdo‘stlik	1,10	52 635,0
13	Quvasoy shahar	Arsif	0,75	35 888,0
14	Quvasoy shahar	Alisher Navoiy	1,10	52 635,0
15	Quvasoy shahar	Bo‘ston	0,75	35 888,0
16	Quvasoy shahar	Namuna	0,75	35 888,0
17	Quvasoy shahar	Bog‘bon	1,10	52 635,0
18	Quvasoy shahar	Nayman	0,75	35 888,0
19	Quvasoy shahar	Mo‘yan	1,05	50 243,0
20	Quvasoy shahar	Mirzo Ulug‘bek	1,10	52 635,0
21	Quvasoy shahar	Qo‘chqorchi	0,75	35 888,0
22	Quvasoy shahar	Kokilon	1,05	50 243,0
23	Quvasoy shahar	Qalacha	0,75	35 888,0
24	Quvasoy shahar	Lashkar	0,95	45 458,0
25	Quvasoy shahar	Ziynat	1,10	52 635,0
26	Quvasoy shahar	Zebuniso	1,10	52 635,0
27	Quvasoy shahar	Yoshlik	1,10	52 635,0
28	Quvasoy shahar	Do‘stlik	0,75	35 888,0
29	Quvasoy shahar	Guliston	1,10	52 635,0
30	Quvasoy shahar	Isfayramsoy	1,05	50 243,0
31	Quvasoy shahar	Valik	0,75	35 888,0

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	MFY lar nomi	2026-yil	
			Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (so‘m)
1	Quvasoy shahar	Bunyodkor	1,05	474,0
2	Quvasoy shahar	Polmon	1,15	519,0
3	Quvasoy shahar	Soy bo‘yi	1,15	519,0
4	Quvasoy shahar	Sufon	0,75	338,0
5	Quvasoy shahar	Cho‘lpon	1,15	519,0
6	Quvasoy shahar	Xamid Olimjon	1,15	519,0
7	Quvasoy shahar	Xuvaydo	1,15	519,0
8	Quvasoy shahar	Yuqori Mo‘yan	1,05	474,0
9	Quvasoy shahar	Yangi obod	0,75	338,0
10	Quvasoy shahar	Pastki Valik	0,75	338,0
11	Quvasoy shahar	Amir Temur	1,15	519,0
12	Quvasoy shahar	Hamdo‘stlik	1,15	519,0
13	Quvasoy shahar	Arsif	0,75	338,0
14	Quvasoy shahar	Alisher Navoiy	1,15	519,0
15	Quvasoy shahar	Bo‘ston	0,75	338,0
16	Quvasoy shahar	Namuna	0,75	338,0
17	Quvasoy shahar	Bog‘bon	1,15	519,0
18	Quvasoy shahar	Nayman	0,75	338,0
19	Quvasoy shahar	Mo‘yan	1,05	474,0
20	Quvasoy shahar	Mirzo Ulug‘bek	1,15	519,0
21	Quvasoy shahar	Qo‘chqorchi	0,75	338,0
22	Quvasoy shahar	Kokilon	1,05	474,0
23	Quvasoy shahar	Qalacha	0,75	338,0
24	Quvasoy shahar	Lashkar	0,95	428,0
25	Quvasoy shahar	Ziynat	1,15	519,0
26	Quvasoy shahar	Zebuniso	1,15	519,0
27	Quvasoy shahar	Yoshlik	1,15	519,0
28	Quvasoy shahar	Do‘stlik	0,75	338,0
29	Quvasoy shahar	Guliston	1,15	519,0
30	Quvasoy shahar	Isfayramsoy	1,05	474,0
31	Quvasoy shahar	Valik	0,75	338,0

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi

so‘mda

Hudud nomi	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
	Koeffitsiyent	Mutloq qiymat	Koeffitsiyent	Mutloq qiymat
Quvasoy shahar	**1,05**	**5 618,0**	**1,05**	**5 190,0**

Izoh: Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli.

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari

so‘mda

№	Hudud nomi	2026-yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi	Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi
1	Quvasoy shahar	1,05	6 195,00	1,05	12 390,0

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-89-11-167-K/25 -son qaroriga
7-ilova

T/r	Hudud moni	2026 yil uchun taklif (0.07 oshiruvchi koeffisiyent qo‘llaganda)											
		Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot-larini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti		Yer usti		Yer osti					
		Koeffit-siyent	Stavka	Koeffit-siyent	Stavka	Koeffit-siyent	Stavka	Koeffit-siyent	Stavka	Koeffit-siyent	Stavka	Koeffit-siyent	Stavka
1	Quvasoy shahar	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalari